O‘ZBEKISTON SUG‘URTA TO‘LOVLARINI KAFOLATLASH JAMG‘ARMASI IFIGS XALQARO ASSOTSIATSIYASIGA QO‘SHILDI

IFIGS sug‘urtani kafolatlash sxemalarining Qozog‘istonning Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan XII xalqaro forumida O‘zbekistonga IFIGS xalqaro assotsiatsiyasiga a’zolik sertifikati topshirildi.

Davomi → 3-betda



Международное сотрудничество

ПОТЕНЦИАЛ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА ПРЕДСТАВЛЕН В РАМКАХ ТУРИСТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ В РОССИИ

Продолжение → 8 стр.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ГАЗЕТА / IQTISODIY GAZETA

BIZNES DAILY BIRJA

#71 (3265) 4.09.2025

GAZETA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI KO‘MAGI BILAN CHOP ETILADI

WWW.BUSINESSDAILY.UZ

O‘zbekiston va Rossiya Prezidentlari ikki tomonlama hamkorlikning dolzarb masalalarini muhokama qildilar

Pekin shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Suhbat avvalida Rossiya yetakchisi davlatimiz rahbari va O‘zbekistonning ko‘p millatli xalqini Mustaqillik kuni bilan samimiy tabriklab, farovonlik, barqaror taraqqiyot va ravnaq tiladi.

Ilgariroq bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi muloqotlar chog‘ida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan O‘zbekiston – Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada kengaytirish hamda mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik sur’atini saqlab qolishga qaratilgan muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni qabul qilish muhim ekani ta’kidlandi.

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida loyihalarni tayyorlash hamda amalga oshirishni jadallashtirish, hududlar o‘rtasida va tashkil etilgan qo‘shma sanoat parklari doirasida kooperatsiya aloqalarini rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

Gumanitar sohada, eng avvalo, madaniyat, san’at, fan va ta’lim yo‘nalishlarida samarali hamkorlik qilinayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘zbekiston va Rossiya yetakchilari xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.



O‘zbekiston Prezidenti Xitoyning yetakchi kompaniyalari rahbarlari bilan uchrashuv o‘tkazdi



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2-sentabr kuni Xitoyga rasmiy tashrifning ishbilarmonlik dasturi doirasida ushbu mamlakatning yetakchi kompaniyalari rahbarlari bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Tadbirda “China Gold”, “China Coal Resources”, “China Datang Corporation”, “Tianjin Rail Transit Group”, “Poly Changda”, “Tianjin Urban Construction”, “Jinchuan Group”, “China Synfuels”, “Jinchuan”, “ST Wonderful”, “Mizuda”, “World Agriculture”, “Dongzhu Ecology” va boshqa kompaniyalar rahbarlari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari Xitoy biznesining O‘zbekistonga qiziqishi har doimgidek yuqori ekanini mamnuniyat bilan qayd etdi. O‘tgan yilning o‘zida investitsiyalar hajmi 10 milliard dollardan oshdi.

Uchrashuvda energetika, geologiya, qishloq va suv xo‘jaligi, kimyo, zargarlik sanoati, jamoat transportini modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish va turizm sohalarida kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Islohot

Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash: Avstriya tajribasi o‘rganildi

→ 2-betda



Международное сотрудничество

Сотрудничестве в сфере противодействия легализации преступных доходов

→ 8 стр.



ОТДЕЛ РЕКЛАМЫ

REKLAMA VA E’LONLAR BO’LIMI

+998 (99) 353-55-54

telegram BIZNES DAILY BIRJA

Islomobod shahrida O'zbekiston davlat mustaqilligining 34 yilligiga bag'ishlangan rasmiy qabul marosimi o'tkazildi

Mamlakatimiz elchixonasi tomonidan Islomobod shahrida O'zbekiston davlat mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan rasmiy qabul marosimi o'tkazildi.



Tadbirga mezbon mamlakat hukumatining yuqori martabali vakillari, jumladan asosiy mehmon sifatida temir yo'llar vaziri Muhammad Hanif Abbasi qatnashdi. Shuningdek, xorijdagi pokistonliklar ishlari va inson resurslarini rivojlantirish vaziri Choudri Salik Husayn, Bosh vazirning maxsus yordamchilari va koordinatorlari, senatorlar, davlat idoralari rahbarlari, Qurolli kuchlar, elchilar hamda diplomatlar, jamoat tashkilotlari, ishbilarmon doira, akademik hamjamiyat, OAV va faol vatandoshlar ishtirok etdi.

Qabul marosimi ikki davlat milliy madhiyalari sadolari ostida boshlandi.

O'zbekiston elchisi nutqida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va barqaror iqtisodiy taraqqiyot haqida ma'lumot berdi. Jumladan, O'zbekiston YIM so'nggi yillarda barqaror o'sishga erishib, 2024-yilda 115 milliard AQSh dollarini tashkil etgani, joriy yilda esa 130 milliard dollardan oshishi kutilayotgani ta'kidlandi. Milliy iqtisodiyotning eksport quvvatlari 26 milliard dollarga yetgani, oltin-valyuta zaxiralari ilk bor 48 milliard dollardan oshgani qayd etildi. Shu bilan birga, O'zbekistonga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar miqdori qariyb 130 milliardga yetgani ta'kidlandi.

– O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgan, dedi elchi Alisher To'xtayev. – Ikki davlat rahbarlari tomonidan imzolangan Qo'shma deklaratsiya va Strategik sheriklik oliy kengashi to'g'risidagi bayonnoma tarixiy ahamiyat kasb etdi va uzoq muddatli hamkorlik uchun mustahkam poydevor yaratdi. Shuningdek, "O'zbekiston - Afg'oniston - Pokiston" temir yo'li qurilishi loyihasi mintaqaviy integratsiyada muhim ahamiyatga ega.

Pokiston temir yo'llar vaziri Muhammad Hanif Abbasi o'z nutqida, Shahboz Sharif hukumati nomidan O'zbekiston Prezidenti va xalqini Mustaqillik kuni bilan tabriklab, tinchlik va farovonlik tilaklarini yetkazdi. U, shuningdek, ikki davlatni chambarchas bog'lab turgan umumiy tarix va mushtarak madaniy qadriyatlarni ta'kidlab, O'zbekistonni mintaqadagi asosiy hamkor sifatida baholadi hamda o'zaro savdo hajmini 2 milliard dollarga yetkazish bo'yicha izchil qadamlarni qo'llab-quvvatlashini bildirdi.

Tadbir doirasida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti, tashqi siyosatdagi yutuqlariga bag'ishlangan fotoko'rgazma, milliy hunarmandchilik buyumlari, cholg'u asboblari, kitoblar va milliy taomlar namoyish etildi. Marosim bayram dasturxoni hamda Xorazmdan taklif etilgan san'atkorlar ijrosidagi milliy kuy-qo'shiqlar sadosi ostida davom etdi.

Qayd etish joizki, 1-sentabr kuni Islomoboddagi eng baland "Mövenpick" mehmonxonasi binosidagi yirik o'lchamli ekranda O'zbekiston davlat mustaqilligi bayrami munosabati bilan tabrik videoroligi kun davomida namoyish etildi.

Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash: Avstriya tajribasi o‘rganildi



Savdo-sanoat palatasi va Jahon banki hamkorligida amalga oshirilayotgan “Farg‘ona vodiysida qishloq tadbirkorligini rivojlantirish” loyihasi doirasida Avstriyaning Tirol viloyatiga xizmat safari uyushtirildi.

Savdo-sanoat palatasi raisining birinchi o‘rinbosari Davronbek Qurbonov Innsburg shahrida Avstriya hukumati tomonidan moliyalashtiriladigan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlovchi “Standortagentur Tirol GmbH” kompaniyasi direktori Ingo Errixer bilan muzokara o‘tkazdi. Delegatsiya a’zolari uchun berilgan ma’lumotga ko‘ra, ushbu kompaniya tadbirkorlarga biznesni tashkil etish, litsenziya va ruxsatnomalar olish, shartnomalar tuzish hamda hamkorlar topishda amaliy yordam ko‘rsatadi. Birgina 2024-yilning o‘zida u 606 ta kichik korxonaga ko‘mak berib, 696 mingta ish o‘rni yaratilishiga va mamlakat YAIMining 38 milliard yevroga oshishiga hissa qo‘shgan. Shundan kelib chiqib, uchrashuvda avstriyaliklarning samarali tajribasi o‘rganildi. Palata huzuridagi kichik biznes uyushmasi faoliyatini takomillashtirishda hamkorlik qilish bo‘yicha kelishuvga erishildi va ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirish tashabbuslari ilgari surildi.

O‘zbekiston delegatsiyasi “INN Cubator” biznes inkubatori faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Ma’lum qilinishicha, 2014-yilda Avstriya iqtisodiy palatasi va Innsburk universiteti hamkorligida tashkil etilgan ushbu inkubatorning asosiy maqsadi tanlab olingan startap loyihalarini 6 oy davomida moddiy-texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash va ularni hayotga tatbiq etishga ko‘maklashishdan iborat. Shu vaqtga qadar mazkur biznes inkubator 900 dan ortiq loyihaning amalga oshishiga yordam bergan. Delegatsiya a’zolari loyihalarni saralash, moliyalashtirish, sinovdan o‘tkazish hamda tayyor mahsulot asosida biznesni yo‘lga qo‘yish mexanizmlari haqida batafsil axborotga ega bo‘lishdi. Shuningdek, o‘zaro suhbat yakunida O‘zbekistonda biznes-inkubatorlar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tajriba almashish va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ikki mamlakat tuzilmalari o‘rtasida doimiy muloqotni o‘rnatishga kelishib olindi.

Savdo-sanoat palatasi raisining birinchi o‘rinbosari Davronbek Qurbonov boshchiligidagi delegatsiya Vena shahrida Avstriya iqtisodiy palatasining Osiyo davlatlari bilan ishlash departamenti direktori Stefan Stanteyskiy bilan ham uchrashdi. O‘zaro suhbat davomida ikki tomonlama hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish masalalari muhokama qilindi. Stefan Stanteyskiy Avstriyada O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi vakolatxonasini ochish hamda Vena shahrida O‘zbekiston–Avstriya biznes forumini o‘tkazish taklifini ilgari surdi. Shuningdek, savdo-iqtisodiy va investitsiya aloqalarini yanada rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari belgilab olindi.

Bundan tashqari, mamlakatimiz delegatsiyasi a’zolari biznesga o‘qitish va kasbiy tayyorgarlik sohasida faoliyat yuritayotgan “WiFi International” kompaniyasi rahbari Klaudiya Noymann bilan uchrashish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Namoyish etilgan taqdimotda keltirilishicha, “WiFi International” – iqtisodiy rivojlanish, mijozlar boshqaruvi va kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlarida yetakchi kompaniya hisoblanadi. 2024-yilga qadar kompaniya tomonidan 33 mingta trening tashkil etilgan bo‘lib, ularda 350 mingga yaqin ishtirokchi bilim va ko‘nikma olgan. Shuningdek, 9 mingdan ziyod xalqaro ISO sertifikati topshirilgan. O‘z navbatida Farg‘ona vodiysida tashkil etilgan Hududiy biznes-inkubatorlar faoliyati va tajribasi yuzasidan ma’lumot berildi. Uchrashuv yakunida ikki tomonlama aloqalarni yo‘lga qo‘yish va “WiFi International” tajribasini O‘zbekistonga tatbiq qilish borasida kelishuvga erishildi.

O‘zbekiston Sug‘urta to‘lovlarini kafolatlash jamg‘armasi IFIGS xalqaro assotsiatsiyasiga qo‘shildi

IFIGS sug‘urtani kafolatlash sxemalarining Qozog‘istonning Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan XII xalqaro forumida O‘zbekistonga IFIGS xalqaro assotsiatsiyasiga a’zolik sertifikati topshirildi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, endilikda MDH davlatlari orasida O‘zbekiston va Qozog‘iston IFIGSning to‘laqonli a’zosi hisoblanadi. Bu esa mazkur ikki davlatning sug‘urta to‘lovlari kafolatlari bo‘yicha xalqaro professional hamjamiyatdagi roli ortib borayotganidan dalolat beradi. O‘zbekiston uchun IFIGSga qo‘shilish jahon sug‘urta hamjamiyatiga integratsiyalashuv va yurtimizda sug‘urta qoplamasining zamonaviy standartlarini ilgari surish yo‘lidagi muhim qadamdir.

O‘tkazilgan forum maqsadlaridan biri raqamli transformatsiya va global o‘zgarishlar sharoitida kafolat tizimlari sohasida ilg‘or tajribalarni muhokama qilish va almashish uchun xalqaro muloqot platformasini yaratishdan iborat bo‘ldi. Forum ishida Yevropa, Osiyo, Shimoliy Amerika, Yaqin Sharq va Afrikaning 26 mamlakati vakillari ishtirok etishdi.

Tadbir doirasida xalqaro kafolat tizimlarining dolzarb muammolari, ularning tendensiyalari va zamonaviy chaqiriqlarga bag‘ishlangan muhokama va panel sessiyalari bo‘lib o‘tdi. Jumladan, O‘zbekiston sug‘urta bozori, uni rivojlantirishning asosiy jihatlari, sug‘urtalangan shaxslar huquqlarini himoya qilish, sohani raqamli transformatsiyalash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va ustuvor yo‘nalishlar haqida taqdimot namoyish etildi.

IFIGSga a’zo mamlakat delegatsiyalari faol hamkorlikka tayyor ekanliklarini, O‘zbekiston Sug‘urta to‘lovlarini kafolatlash jamg‘armasining xalqaro bilim va amaliy tajriba almashinuvini rivojlantirish bo‘yicha tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashlarini bildirishdi.

Ma’lumot uchun: *IFIGS – sug‘urta kafolatlari va kompensatsiya to‘lovlarini ta’minlovchi tashkilotlarning xalqaro assotsiatsiyasi. Forum Yevropa, Osiyo, Shimoliy Amerika, Yaqin Sharq va Afrikaning 26 davlatidan ishtirokchilarni jamlaydi va sug‘urtalovchilar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha tajriba almashish va xalqaro standartlarni ishlab chiqish uchun asosiy platforma bo‘lib xizmat qiladi.*





Yangi nizom tasdiqlandi

Unga ko‘ra, endilikda davlat muassasalari va davlat ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish, davlat ulushining vujudga kelishi va miqdorining o‘zgarishi bilan bog‘liq ta’sis hujjatlariga kiritiladigan o‘zgartirishlar Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan kelishiladi.

Vazirlar Mkamasining 2025-yil 25-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan nizomda ushbu jarayonni amalga oshirish tartibi aks ettirilgan. Nizomga asosan davlat muassasalari va davlat ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish (qayta tashkil etish), shuningdek, davlat ulushining vujudga kelishi va miqdorining o‘zgarishi bilan bog‘liq ta’sis hujjatlariga kiritiladigan o‘zgartirishlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi buyrug‘i qabul qilinadi. Davlat ishtirokidagi korxonalarga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritishga oid kelishuvlar (bitim, shartnoma, memorandumlar), davlat ishtirokidagi korxonalarning boshqa xo‘jalik jamiyatlari ustav kapitalida ishtirok etish, davlat ishtirokidagi korxonalar yagona ta’sischi bo‘lgan korxonalarni tashkil etish (qayta tashkil etish), davlat ishtirokidagi korxonalarning ko‘chmas mulk obyektlarini begonalashtirish masalalari majburiy tartibda mazkur agentlik bilan kelishiladi. O‘z navbatida, ushbu nizom davlat ulushining xususiylashtirilishi natijasida uning miqdorining o‘zgarishi bilan bog‘liq ta’sis hujjatlariga kiritiladigan o‘zgartirishlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Hujjatga muvofiq, davlat ishtirokidagi korxonalarning bir qator masalalar bo‘yicha vakolatli organ, ya’ni Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va uning hududiy boshqarmalari bilan oldindan kelishilishi majburiy hisoblanadi. Ular uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritishga oid kelishuvlar (bitim, shartnoma, memorandumlar), boshqa xo‘jalik jamiyatlari ustav kapitalida ishtirok etish, davlat ishtirokidagi korxonalar yagona ta’sischi bo‘lgan korxonalarni tashkil etish (qayta tashkil etish) hamda ko‘chmas mulk obyektlarini sotishdan iborat.

Bunda respublika ijro etuvchi hokimiyati organlari, shu jumladan, agentlik aksiyador (ishtirokchi, ta’sischi) bo‘lgan korxonalar bo‘yicha — agentlikning markaziy apparati, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda hududiy miqyosdagi tashkilot va idoralar, shu jumladan, agentlik hududiy boshqarmalarining aksiyador (ishtirokchi, ta’sischi)ligida bo‘lgan korxonalar bo‘yicha — agentlikning hududiy boshqarmalari bilan kelishiladi. Davlat ishtirokidagi korxonalarning mulkiy masalalari bo‘yicha agentlik bilan kelishish muayyan tartibga asosan asosan amalga oshiriladi. Ya’ni davlat ishtirokidagi korxonalar vakolatli organ bilan kelishiladigan masalalar bo‘yicha arizaga uchinchi shaxslar tomonidan davlat ishtirokidagi korxonaga investitsiya kiritishga oid kelishuvlar (bitim, shartnoma, memorandumlar) bo‘yicha uchinchi shaxslar tomonidan taqdim etilgan investitsiya taklifi va shartlari, investitsiya kiritishga oid kelishuvlar (bitim, shartnoma, memorandumlar) loyihasi, investitsiya kiritishning korxonaga ta’sirini baholash bo‘yicha xulosa va biznes-reja, ushbu masala ma’qullangani to‘g‘risida davlat ishtirokidagi korxona kuzatuv kengashi qarori, agar kuzatuv kengashi mavjud bo‘lmasa, ijro organi yoki davlat ulushiga nisbatan aksiyador (ishtirokchi) vazifasini bajaruvchining murojaati kabi hujjatlar ilova qilib topshiriladi. Davlat ishtirokidagi korxonalarning boshqa xo‘jalik jamiyatlari ustav kapitalida ishtirok etish bo‘yicha esa ustav kapitalida ishtirok etilishi rejalashtirilayotgan xo‘jalik jamiyatlarining pasport ma’lumotlari hamda oxirgi uch yillik buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotlari va biznes-rejalari, ustav kapitalida ishtirok etish rejalashtirilayotgan xo‘jalik jamiyatlarining ta’sis hujjatlari hamda ularga oxirgi kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar, ushbu masala ma’qullangani to‘g‘risida davlat ishtirokidagi korxona kuzatuv kengashi qarori, agar kuzatuv kengashi mavjud bo‘lmasa, ijro organi yoki davlat ulushiga nisbatan aksiyador (ishtirokchi) vazifasini bajaruvchining murojaati, agar qonunchilik hujjatlariga asosan rozilik olish talab etilsa, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining oldindan roziligi singari hujjatlar tegishli arizaga ilova qilinadi. Davlat ishtirokidagi korxonalar yagona ta’sischi bo‘lgan korxonalarni tashkil etish (qayta tashkil etish) bo‘yicha esa tashkil etish (qayta tashkil etish)ning zarurati yuzasidan xulosa, ushbu masala ma’qullangani to‘g‘risida davlat ishtirokidagi korxona kuzatuv kengashi qarori, agar kuzatuv kengashi mavjud bo‘lmasa, ijro organi yoki davlat ulushiga nisbatan aksiyador (ishtirokchi) vazifasini bajaruvchining murojaati, ta’sis hujjatlari hamda ularga oxirgi kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar, agar qonunchilik hujjatlariga asosan rozilik olish talab etilsa, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining oldindan roziligi kerak bo‘ladi.

Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda davlat ishtirokidagi korxonalarning ko‘chmas mulk obyekti negizida uchinchi shaxs ishtirokida investitsiya loyihalarini amalga oshirish va ularni begonalashtirish (sotish) bo‘yicha arizaga esa ko‘chmas mulk obyekti negizida investitsiya loyihalarini amalga oshirish yoki ushbu ko‘chmas mulk obyektini begonalashtirish (sotish) zarurati yuzasidan xulosa, tegishliligi bo‘yicha ariza beruvchining yuqori turuvchi respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xulosasi yoki ushbu masalani ma’qullash to‘g‘risida davlat ishtirokidagi korxona vakolatli boshqaruv organining qarori, ko‘chmas mulk obyektining pasporti, ko‘chmas mulk obyektini baholash hisobotining nusxasi ilova qilingan holda vakolatli organga murojaat etiladi.



BIZNES DAILY BIRJA

- **Биржа савдолари натижалари**
- **Биржа бюллетенлари**
- **Котировкалар, листинглар**
- **Танлов ва тендерлар**
- **Қимматли қоғозлар бозори иштирокчиларининг муҳим фактлари**
- **Банкротлик**

#71 (3265) 4.09.2025
WWW.BUSINESSDAILY.UZ

“1-Temir beton mahsulotlari zavodi” МЧЖ таъсисчиларининг умумий йиғилиши (конференцияси) ўтказилиши ҳақида эълон!

“1-Temir beton mahsulotlari zavodi” МЧЖ таъсисчиларининг 2025 йил 26 август кунига белгиланган умумий йиғилиши (конференцияси) 2025 йил 9 сентябрга кўчирилганини, ушбу йиғилиш соат 10.30 да Тошкент вилояти, Қибрай тумани, Салар шаҳарчаси, Файзобод м.ф.й., 3иёкорлар-1 кўчаси, 212-уйда жойлашган жамият маъмурий биносида ўтказилиши тўғрисида маълум қиламиз.

Рўйхатга олиш соат 9.30 да бошланади ва 10.20 да тугайди.

Электрон почта манзили ва веб-сайти: kibrayjbi1@mail.ru, www.jbi1.uz

Кун тартиби:

1. “1-Temir beton mahsulotlari zavodi” МЧЖни таъсис этиш.
2. Ўтказиш далолатномасини тасдиқлаш.
3. “1-Temir beton mahsulotlari zavodi” МЧЖ устав фонди миқдори, унинг иштирокчилари таркиби ва устав фондидаги улушлари нисбатини тасдиқлаш.
4. “1-Temir beton mahsulotlari zavodi” МЧЖ таъсис шартномасини тузиш ва таъсис ҳужжатларини тасдиқлаш.
5. “1-Temir beton mahsulotlari zavodi” АЖ акцияларини “1-Temir beton mahsulotlari zavodi” МЧЖ устав капиталидаги улушига айрибошлаш.
6. “1-Temir beton mahsulotlari zavodi” МЧЖ ижроия органини тузиш ва унинг раҳбарини лавозимга тайинлаш.
7. “1-Temir beton mahsulotlari zavodi” МЧЖ муҳр ва штамп эскизини тасдиқлаш ҳамда муҳр ва штамп тайёрлаш учун масъул шахсни тайинлаш.

Умумий йиғилишни ўтказишга тайёргарлик кўрилаётганда тақдим этиладиган ахборот (маълумот)лар билан “1-Temir beton mahsulotlari zavodi” АЖнинг +99855-506-55-09 телефон рақамига мурожаат қилиш орқали танишиш мумкин.

Иштирокчилар шахсини тасдиқловчи ҳужжат билан, уларнинг вакиллари эса Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги талабларига мувофиқ расмийлаштирилган ишончнома билан қатнашишлари сўралади.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 22 августдаги 4-1001-2511/94202-сонли ажримига асосан “Best trend doors” (СТИР 304711813) ХКга нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилди ва кузатув тартиб-таомили жорий этилди. Муваққат бошқарувчи этиб Рустамқулова Дилафрўз Оқиловна тайинланди.

Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 2 октябрь куни соат 15.00 да Тошкент шаҳар солиқ бошқармасида ўтказилади. Барча кредиторлар 1 (бир) ой давомида +99893-406-25-70 телефон рақами орқали мурожаат қилишлари мумкин.

Кун тартибидаги масалалар:

1. Қарздор жамиятга нисбатан санация ёки ташқи бошқарувни жорий қилиш.
2. Қарздорни тўловга қобилиятсиз деб топиш ва тугатишга доир иш очиш.
3. Санация қилувчи, ташқи бошқарувчи ёки тугатиш бошқарувчиси номзодини тасдиқлаш.
4. Қарздор жамият кредиторлари реестрини тасдиқлаш.
5. Муваққат бошқарувчининг иш ҳақини белгилаш.

Кредиторларни рўйхатга олиш йиғилишдан 30 дақиқа олдин бошланиб, 5 дақиқа қолганда тўхтатилади.

Йиғилишда шахсини ҳамда қарздорликни асословчи ҳужжат билан қатнашиш талаб этилади.

Ромитан туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 15 августдаги 4-2006-2501/4101-сонли ажримига асосан “BT build road” МЧЖга (СТИР 310435670) нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилиб, кузатув таомили қўлланилган. Муваққат бошқарувчи этиб Бурхонов Мирзожон Ботирович тайинланган. Шу муносабат билан 2025 йил 3 октябрь куни соат 11.00 да Бухоро вилояти, Бухоро шаҳри, Ислом Каримов кўчаси, 10-уйда жамият кредиторларининг биринчи йиғилиши бўлиб ўтиши режалаштирилган.

Йиғилишда қўйидаги масалалар кўриб чиқилади:

1. Ромитан туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 15 августдаги 4-2006-2501/4101-сонли ажрими билан таништириш.
2. Кредиторлар реестрини тузиш ва тасдиқлаш.
3. Қарздорга нисбатан банкротликнинг навбатдаги таомилини қўллаш.
4. Муваққат бошқарувчининг иш ҳақини белгилаш ва тасдиқлаш.

Кредиторлар йиғилишида кўриб чиқиладиган масалалар билан Бухоро шаҳар, Ислом Каримов кўчаси, 10-уйда танишиб чиқиш мумкин.

Тел: +99897-303-99-66.

Кредиторлар йиғилишига 30 дақиқа қолганда рўйхатга олиш бошланади. Йиғилишда вакиллар ишонч хатлари ва шахсини тасдиқловчи ҳужжатларни тақдим этгандан кейин иштирок этадилар.

Кредиторлар қарздорга бўлган талабларини ёзма шаклда кредиторлик қарзини тасдиқловчи барча ҳужжатларни илова қилган ҳолда эълон чиққан кундан бошлаб бир ой муддат ичида муваққат бошқарувчи М.Б.Бурхоновга тақдим этишлари мумкин.

Ғузор туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 17 июлдаги 4-1803-2301/720-сонли иш бўйича ажримига асосан “G’uzor milk produkt” МЧЖ (СТИР 307140382) банкрот деб эътироф этилиб, тугатишга доир иш юритиш таомили жорий қилинди. З.Холмуродова суд тугатиш бошқарувчиси вазифасига тайинланди.

Шу муносабат билан “G’uzor milk produkt” МЧЖ кредиторларининг навбатдаги йиғилиши 2025 йил 19 сентябрь куни соат 15.00 да Қарши шаҳри, Амир Темур кўчаси, 43-уйда ўтказилиши белгиланди.

Йиғилишда қуйидаги масалалар кўриб чиқилади:

1. Суд тугатиш бошқарувчисининг ҳисоботи.
2. Келишув битимини тасдиқлаш.
3. Бошқа масалалар.

Ушбу йиғилишда кредитор ўзининг шахсини тасдиқловчи ҳужжат билан, унинг вакили ваколатини белгиловчи ишончнома билан қатнашишлари шарт.

Маълумот олиш учун тел: +99850-077-58-36.

ЭЪЛОН!

“SINO” акциядорлик жамияти Адлия вазирлиги томонидан 2009 йил 30 августда 2000-рақам билан рўйхатга олинган “Қимматли қоғозлар эмиссия ва эмиссиявий қимматли қоғозлар чиқаришларини давлат рўйхатидан ўтказиш қоидалари”нинг 100-бандига асосан “SINO” акциядорлик жамиятининг 1996 йил 13 июлдаги 1-923-сон, 2010 йил 28 январдаги H0181-2-сон, 2011 йил 12 августдаги H0181-0-сон ҳамда 2016 йил 6 сентябрдаги H0181-8-сон қарорлари билан давлат рўйхатига олинган акциялар чиқаришларига асосан чиқарилган умумий қиймати 754 010 400 сўмлик, номинал қиймати 200 сўм бўлган 3 770 052 дона оддий нақдсиз акциялари ва миллий идентификация рақами (15-08-1-923, RU102H0181T2, RU103H0181T0, RU104H0181T8), қимматли қоғозлар чиқарилиши тўғрисидаги қарорлар ва рисолалари йўқолганлигини маълум қилади.

Quyida nomlari keltirilgan korxonalarga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgan va sud boshqaruvchisi etib Soliyev Damirjon Nurmatovich tayinlangan. Shu munosabat bilan 2025-yil 6-oktyabr kuni soat 15.00 da Buxoro viloyati, Buxoro shahar, B.Naqshband ko’chasi, 299-uyda jamiyat kreditorlarining yig’ilishi bo’lib o’tishi rejalashtirilgan.

T/r	Tashkilot nomi	STIR	Ajrim (Qaror) raqami va sanasi	Jarayon	Hududi
1	“Gazli yo’l qurish ta’mirlash” MChJ	305289585	2025 yil 15 avgust. 4-2006-2501/4092	Kuzatuv	Romitan tuman
2	“Asia-Acron” MChJ	306490867	2025 yil 26 avgust. 4-2001-2504/7789	Kuzatuv	Kogon tuman
3	“Bux tezkor montaj servis” MChJ	300628640	2025 yil 21 avgust 4-2001-2504/7976	Tugatish	Buxoro shahar
4	“Ali Azim Muhammadiy” D.X.	303074071	2025 yil 15 iyul 4-2003-2501/3227	Tugatish	G’ijduvon tumani
5	“Tojiobod dalasi-2019” F.X	306271656	2025 yil 11 avgust 4-2006-2501/3334	Tugatish	Shofirkon tumani

Yig‘ilishda quyidagi masalalar ko‘rib chiqiladi:

1. Ajrim (hal qiluv qarori) bilan tanishtirish.
2. Kreditorlar reestrini, kalendar ish rejasini tasdiqlash.
3. Qarzdorga nisbatan bankrotlikning navbatdagi taomilini qo‘llash.
4. Muvaqqat boshqaruvchining ish haqini (Shtat birligi birligi va smeta xarajatlari) tasdiqlash.
5. Auditorlik va baholovchi tashkilotlar nomzodlari muhokamasi
6. Boshqa masalalar

Yuqoridagi kreditorlar yig‘ilishida ko‘rib chiqiladigan materiallar bilan Buxoro shahar, M.Iqbol ko’chasi, 10-uyda tanishib chiqishingiz mumkin.

Kreditorlar yig‘ilishiga 30 daqiqa qolganda ro‘yxatga olish boshlanadi. Kreditorlar yig‘ilishida vakillar ishonch xatlari va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgandan keyin ishtirok etadilar.

Kreditorlar qarzdorga bo‘lgan talablarini yozma shaklda kreditorlik qarzini tasdiqlovchi barcha hujjatlarni ilova qilgan holda e’lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida muvaqqat boshqaruvchi D.N.Soliyevga taqdim qilishlari mumkin.

Tugatish jarayonidagi qarzdorning dumaloq muhri, to‘rtburchak shtampi e’lon chiqqan kundan boshlab 10 kunlik muddatda tugatish boshqaruvchisiga topshirilmagan taqdirda, bekor qilingan hisoblanadi.

Qarzdorning qarzini to‘lash istagini bildirgan shaxslar tugatish boshqaruvchisiga murojaat qilishlari mumkin.

Shuningdek, moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini audit tekshiruvidan o‘tkazish bo‘yicha auditorlik tashkilotlaridan hamda qarzdor mol-mulklarini baholash bo‘yicha baholovchi tashkilotlardan tijoriy takliflar yig‘ilish kuniga qadar berilishi so‘raladi.

Каттақўрғон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 22 августдаги 4-1402-2502/8163-сонли ажримига асосан Каттақўрғон шаҳрида рўйхатдан ўтган “Kattakurgan oil” МЧЖга (СТИР 305424235) нисбатан тўловга қобилиятсиз(банкрот)лик иши қўзғатилган ва суд муҳокамасига тайёрлаш бўйича кузатув жорий қилинган.

Кузатиш ишларини амалга ошириш учун 3-тоифали суд бошқарувчиси Д.Донакулов муваққат бошқарувчи этиб тайинланган.

Мазкур қарздор жамият кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 6 октябрь куни соат 11.00 да Самарқанд вилоят солиқ бошқармаси маъмурий биносида бўлиб ўтади.

Йиғилишга кредиторлар ва унинг вакиллари шахсини ҳамда қарздорликни тасдиқловчи ҳужжатлар, йиғилиш иштирокчиси ваколатларини тасдиқловчи ишончномалар билан келиши сўралади. Кун тартибига “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонун билан кредиторларнинг биринчи йиғилишида кўриб чиқиш ваколати берилган қарорлардан бирини қабул қилиш масаласи киритилган. Ушбу маълумот эълон қилинган пайтдан эътиборан ўттиз кун ичида кредиторлар ўз талабларини қарздорга тақдим этиши сўралади.

Мурожаат учун тел: +99894-476-68-55, +99898-777-68-55.

Qorako‘l tumanlararo iqtisodiy sudining 2025-yil 25-avgustdagi 4-2004-2501/3707-sonli ajrimiga asosan “Luxury Rent Car Bakhrom” MChJga (STIR 311216894) va Kogon tumanlararo iqtisodiy sudinig 2025-yil 19-avgustdagi 4-2002-2501/3615-sonli ajrimiga asosan “Mega trade Shoxjaxon” MChJga nisbatan to‘lovga qobilyatsiz(bankrot)lik ishi qo‘zg‘atilib, kuzatuv tartib-taomili joriy qilingan, sud(tugatish) boshqaruvchisi etib Umedov Sanjar Sobirovich tayinlangan.

Shu munosabat bilan kreditorlarning yig‘ilishi 2025-yil 10-oktyabr kuni soat soat 16.00 Buxoro viloyati, Buxoro shahri, I.Karimov ko‘chasi, 10-uy (Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Buxoro viloyati hududiy boshqarmasi binosi)da bo‘lib o‘tadi.

Yig‘ilishda ko‘rib chiqiladigan masalalar bilan tanishish hamda ishtirokchilarni ro‘yxatga olish 2025-yil 10- oktyabr kuni soat 15.30gacha amalga oshiriladi.

Kun tartibi:

1. Qarzdorning muvaqqat boshqaruvchisi hisoboti.
2. Qarzdor kreditorlari reestirini tasdiqlash.
3. “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi qonunning 89-moddasiga asosan bankrotlik taomilidan birini tanlash.
4. Bashqa masalalar.

Yuqoridagilarni inobatga olib, kreditorlar yig‘ilishiga ishonchli vakil ishonch xatlari, shaxsini tasdiqlovchi hujjat hamda kreditorlik qarzini tasdiqlovchi barcha hujjatlar (shartnoma, hisob-faktura va solishtirma dalolatnoma) bilan kelishi shart.

Murojaat uchun manzil: Buxoro viloyati, Buxoro shahri, I.Karimov ko’chasi, 10-uy.

tel: +99898-274-14-02. E-mail: sanjar.umedov@yandex.ru

Жиззах туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 22 августдаги 4-1301-2501/8891-сонли ҳал қилув қарорига асосан “As jizzax servis” шўъба корхонаси (СТИР 203525518) тўловга қобилиятсизликнинг умумий таомили бўйича тўловга қобилиятсиз деб эътироф этилиб, тугатишга доир иш юритиш жорий қилинган.

Тугатиш (суд) бошқарувчиси этиб Ф.А.Пирматов тайинланган.

Қарздор “As jizzax servis» ШК кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 10 октябрь куни соат 11.00 да Жиззах шаҳар, Заргарлик МФЙ, 91-а уйда бўлиб ўтади.

Кредиторлар ўз талаблари билан ўттиз кун муддатда Жиззах вилояти, Жиззах шаҳри, Заргарлик МФЙ, 91-а уйга мурожаат қилишлари мумкин. Хўжалик юритувчи субъектнинг низоми, рўйхатдан ўтган гувоҳномаси, думалоқ муҳри, штампи тугатиш бошқарувчисига эълон чиққан кундан бошлаб 10 кунлик муддатда тақдим этилмаган тақдирда, бекор қилинган ҳисобланади.

Жиззах туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 10 июлдаги 4-1301-2501/8140-сонли ажрими билан “Axmedov Qobul Baliqchilik” МЧЖ (СТИР 301899375) ва № 4-1301-2501/8141-сонли ажрими билан “Temurjon-Suxrobjon” МЧЖга (СТИР 306015141) нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг кузатув таомили жорий қилиниб, муваққат бошқарувчи этиб О.Джўраев тайинланган. Иқтисодий суднинг 2025 йил 29 августдаги ажримлари билан О.Джўраев вазифасидан озод этилиб, муваққат бошқарувчи этиб Ф.Пирматов тайинланган. Барча аризалар юқорида кўрсатиб ўтилган манзил бўйича қабул қилинади.

Мурожаат учун тел: +99893-305-81-44.

Жиззах туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 28 августдаги 4-1301-2502/11306-сонли ажрими билан "Newland" МЧЖга (СТИР 305647242) нисбатан умумий тартиб-таомил бўйича тўловга қобилиятсизликга доир иш қўзғатилиб, кузатув жорий этилган.

Кузатув ишларини амалга ошириш учун 3-тоифали суд бошқарувчиси Аминов Хуршид Ўткирович муваққат бошқарувчи этиб тайинланган.

"Newland" МЧЖ кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 6 октябрь куни соат 11.00 да Тошкент шаҳар, Чилонзор тумани, Бунёдкор шохкўчаси, 42-уйда бўлиб ўтади.

Мурожаат учун телефон: +99891-784-33-31.

Кун тартибида қуйидаги масалалар кўрилади:

1. Жиззах туманлараро иқтисодий судининг ажрими билан таништириш ва муваққат бошқарувчи ҳисоботи.
2. Кредиторлар талаблари реестрини тузиш ва тасдиқлаш.
3. Суд санациясини ёки ташқи бошқарувни жорий этиш ҳақида илтимоснома билан Жиззах туманлараро иқтисодий судига мурожаат қилиш.
4. Қарздорни тўловга қобилиятсиз деб топиш ва тугатишга доир иш юритишни бошлаш ҳақида илтимоснома билан Жиззах туманлараро иқтисодий судига мурожаат қилиш.
5. Санация қилувчи бошқарувчининг, ташқи бошқарувчининг ёки тугатиш бошқарувчисининг номзодларини маъқуллаш.
6. Муваққат бошқарувчининг иш ҳақини белгилаш ва тасдиқлаш.

Қарздорга нисбатан талаб билдираётган барча корхона, ташкилот ва бошқа субъектлар вакиллари қарздорликни тасдиқловчи таққослама далолатнома билан, овоз бериш учун ваколатнома асосида кредиторлар йиғилишида қатнашишлари сўралади.

Ушбу йиғилишга қадар кредиторлар ҳамда вакил кредиторларнинг биринчи йиғилишида қатнашиш ва овоз бериш учун ваколатномаларини муваққат бошқарувчига тақдим қилиши шарт.

Кўриб чиқиладиган масалалар билан йиғилиш давомида таништириб борилади. Иштирокчиларни рўйхатга олиш йиғилишдан 30 дақиқа олдин бошланиб, 5 дақиқа қолганида тўхтатилади.

Тақдим этилган ваколатномада ваколатли вакилнинг фамилияси, исми, отасининг исми, паспорт маълумотномаси, лавозими, ваколатноманинг ваколат муддати ва муҳр бўлиши лозим.

Фориш туман иқтисодий судининг 2025 йил 25 августдаги ажримларига асосан Зарбдор туманидаги "Nurafshonlik fermer" ФХ (СТИР 306914448) 4-1303-2502/6338, "Qayimalik Shuxrat" ФХ (СТИР 306930871) 4-1303-2502/6339, "Marjona-Durbek" ФХ (СТИР 305956554) 4-1303-2502/6340, "Xush-dam o'lka" ФХ (СТИР 305353926) 4-1303-2502/6341, "Zomin-Zarbdor" ФХ (СТИР 305368123) 4-1303-2502/6342, "Samandar-Ibrohim dalasi" ФХ (СТИР 307047917) 4-1303-2502/6343 ва "Shaxzod yutug'i" ФХга (СТИР 306145273) 4-1303-2502/6344 нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилиб, кузатув таомили жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи этиб Ф.Носиров тайинланган.

Ушбу хўжалик юритувчи субъектлар кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 6 октябрь куни соат 11.00 да (индекс:130100) Жиззах шаҳри, Боғишамол МФЙ, Тоғишамол кўчаси, 1-уйда бўлиб ўтади.

Кредиторлар йиғилиши кун тартиби:

1. Кредиторлар йиғилиши раисини сайлаш.
2. Муваққат бошқарувчининг ҳисоботи.
3. Корхонага нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг кейинги таомилини қўллаш юзасидан Дўстлик туманлараро иқтисодий судига мурожаат қилиш.
4. Муваққат бошқарувчига ойлик иш ҳақини белгилаш.
5. Тўловга қобилиятсизликнинг кейинги таомилига суд бошқарувчиси номзодини маъқуллаш.
6. Бошқа масалалар.

Кредиторлар талаблари эълон чиққан кундан бошлаб бир ой муддат ичида Жиззах шаҳри, Боғишамол МФЙ, Тоғишамол кўчаси, 1-уйда қабул қилинади.

Мурожаат учун тел: +99895-417-61-81.

Ушбу йиғилишда кредиторлар қарздорликни тасдиқловчи ҳужжатлар, вакиллар шахсини тасдиқловчи ҳужжат ва ишончнома билан қатнашишлари мумкин.

Дўстлик туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 25 августги ҳал қилув қарорларига асосан Арнасой туманидаги "Oyyazimxon agro" МЧЖ (СТИР 308965043), "Yangibo'ston nur" ФХ (СТИР 306830434), "Xayot tumori 1997" ФХ (СТИР 308097260), "Rishod Nurimon dalalar" ФХ (СТИР 308133492) соддалаштирилган тартибда тўловга қобилиятсиз деб эътироф этилиб, тугатишга доир иш очилган. Тугатиш суд бошқарувчиси этиб Х.Эргашев тайинланган.

Кредиторлар талаблари эълон чиққан кундан бошлаб бир ой муддат ичида қабул қилинади. Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 6 октябрь куни соат 10.00 да Арнасой туман солиқ инспекцияси биносида ўтказилади.

Мурожаат учун тел: +99899-552-94-88.

Ушбу хўжалик юритувчи субъектларга тегишли бўлган думалоқ муҳр ва тўртбурчак тамғалар эълон чиққан кундан бошлаб 10 кун муддат ичида тугатиш суд бошқарувчисига топширилмаган тақдирда, ҳақиқий эмас деб топилади ҳамда бекор қилинади.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг ажримлари билан қуйидаги корхоналарга нисбатан тўловга қобилиятсизлик (банкротлик) тўғрисида иш қўзғатилиб, кузатув жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи этиб Чўтов Мамаюсуп Омонович тайинланган.

Мазкур қарздор корхоналар кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 7 октябрь куни Яккасарой тумани, А.Қаҳҳор 9-тор кўчаси, 1-уйнинг 315-хонасида бўлиб ўтади.

Кредиторлар йиғилишида "Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида"ги қонуннинг 89-моддасида кўрсатиб ўтилган ҳамда ушбу қонунда назарда тутилган бошқа масалалар кўриб чиқилади.

Йиғилишда кўриб чиқиладиган масалалар билан танишиш хоҳиши бўлган кредиторлар кузатув жараёнида мурожаат қилишлари мумкин.

Кредиторлар томонидан билдирилган талаблар эълон чиққан кундан бошлаб 1 ой давомида Яккасарой тумани, А.Қаҳҳор 9-тор кўчаси, 1-уйнинг 315-хонасида қабул қилинади.
Тел: +99899-888-00-83.

Билдириладиган талаблар "Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида"ги қонуннинг 87-моддаси бўйича белгиланган муддатда талабларнинг асослилигини тасдиқловчи ҳужжатлар илова қилинган ҳолда судга, қарздорга ҳамда муваққат бошқарувчига юборилган тақдирда, ўрганиб чиқилади ҳамда талаблар ўз тасдиғини топса, белгиланган тартибда кредиторлар реестрига киритилади.

Т/р	СТИР	Корхона номи	Иқтисодий суднинг (ажрими, ҳал қилув қарори)нинг Санаси	Рақами	Суднинг номи	Рўйхатга олиш вақти	Кредиторлар йиғилишининг вақти
1	307592217	"Silikon paint" МЧЖ	25.08.2025й.	4-1101-2501/13751	Зангиота	10.30	11.00
2	309358132	"Emaar collor" МЧЖ	29.08.2025й.	4-1101-2501/13756	Зангиота	11.30	12.00

Пайариқ туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 14 августдаги 4-1404-2501/4573-сонли ишига асосан Абдусаидов Жавлонбек Абдужалил ўғлига нисбатан (14.01.2002 йил туғилган, Passport ID: AB8694295, 20.01.2018 йилда Булунғур туман ИИБ томонидан берилган) (JSHSHIR 51401026030015) тўловга қобилиятсизлик тўғрисида ишни қўзғатиш ҳамда кузатув жорий этиш тўғрисида ажрим чиқарилган. Шу суднинг 2025 йил 14 августдаги ажримига асосан молиявий бошқарувчи этиб Донақулов Дилшод Донақул ўғли тайинланган.

Қарздор кредиторларининг талаблари "Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида"ги қонуннинг 87-моддасида белгиланган тартибда Пайариқ туманлараро иқтисодий суди, қарздор ва суд бошқарувчиси томонидан қабул қилинади. Кредиторлар йиғилиши 2025 йил 6 октябрь куни соат 11.00 да Самарқанд вилоят солиқ бошқармаси (Самарқанд шаҳри, Гагарин кўчаси, 85-а уй) маъмурий биносида бўлиб ўтади. Вакиллар тегишли ишончнома билан йиғилишда қатнашиши мумкин. Талабларни билдириш учун суд бошқарувчисининг почта манзили: Самарқанд шаҳри, Обод Маскан МФЙ, Ифтихор кўчаси, 19-уй, 35-хонадон. Тел: +99894-476-68-55.

Қарздорга нисбатан талаб билдираётган барча корхона, ташкилот ва бошқа субъектлар вакиллари қарздорликни тасдиқловчи таққослама далолатнома билан, овоз бериш учун ваколатнома асосида кредиторлар йиғилишида қатнашишлари сўралади.

Buxoro viloyat sudi iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati sudining 2025-yil 21-iyul kunidagi 4-20-2504/14–sonli hal qiluv qaroriga asosan "Siyovush Agro" MChJ to'lovga qobilyatsiz(bankrot) dep etirof etilgan va to'lovga qobiliyatsizlik ishi qo'zg'atiligan. Sanjar Sobirovich Umedov sud(tugatish) boshqaruvchisi etib tayinlandi.

Shu munosabat bilan 2025-yil 6-oktyabr kuni "Siyovush Agro" MChJ kreditorlarining yig'ilishi soat 16.00 Buxoro viloyati, Buxoro shahri, I.Karimov ko'chasi 10-uy(Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Buxoro viloyati hududiy boshqarmasi binosi)da bo'lib o'tadi.

Yig'ilishda ko'rib chiqiladigan masalalar bilan tanishish hamda ishtirokchilarni ro'yxatga olish 2025-yil 6-oktyabr kuni soat 15.30 gacha amalga oshiriladi.

Kun tartibi:

1. Qarzdorning sud(tugatish) boshqaruvchisi hisobotini tasdiqlash.
2. Qarzdorning sud(tugatish) boshqaruvchisi tugatish rejasini tasdiqlash.
3. Baholovchi tashkilot tomonidan qarzdorning baholangan mol-mulklari bahosi va baholash tashkilotining baholash hisobotini tasdiqlash.
4. Baholovchi tashkilot tomonidan qarzdorning baholangan mol-mulklarini onlayn auksion savdolarga chiqarishni tasdiqlashi.
5. Qarzdorning sud(tugatish) boshqaruvchisi tomonidan shakillantirilgan kreditorlkar rejasini tasdiqlash.
6. Boshqa masalalar.

Murojaat uchun manzil: Buxoro viloyati, Buxoro shahri, I.Karimov ko'chasi, 10-uy.

Sud(tugatish) boshqaruvchi: Umedov Sanjar Sobirovich.

tel: +99898-274-14-02. e-mail: sanjar.umedov@yandex.ru.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 25 августдаги 4-1101-2516/94249-сонли ажрими билан "True Dealers" МЧЖга (СТИР 307487314) нисбатан тўловга қобилиятсизлик (банкротлик) тўғрисида иш қўзғатилиб, кузатув жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи этиб Усманов Эркин Дехканбаевич тайинланган.

Мазкур корхона кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 2 октябрь куни соат 11.00 да Яккасарой тумани, А.Қаҳҳор 9-тор кўчаси, 1-уйнинг 315-хонасида бўлиб ўтади.

Йиғилишда иштирок этадиган кредиторлар соат 10.30 дан бошлаб рўйхатга олинади.

Кредиторлар йиғилишида "Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида"ги қонуннинг 89-моддасида кўрсатиб ўтилган ҳамда ушбу қонунда назарда тутилган бошқа масалалар кўриб чиқилади.

Кредиторлар томонидан билдирилган талаблар эълон чиққан кундан бошлаб 1 ой давомида Яккасарой тумани А.Қаҳҳор 9-тор кўчаси, 1-уйнинг 315-хонасида қабул қилинади.

Тел: +99899-870-71-77.

Йиғилишда кўриб чиқиладиган масалалар билан танишиш хоҳиши бўлган кредиторлар кузатув жараёнида мурожаат қилишлари мумкин.

Билдириладиган талаблар "Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида"ги қонуннинг 87-моддаси бўйича белгиланган муддатда талабларнинг асослилигини тасдиқловчи ҳужжатлар илова қилинган ҳолда судга, қарздорга ҳамда муваққат бошқарувчига юборилган тақдирда, ўрганиб чиқилади ҳамда талаблар ўз тасдиғини топса, белгиланган тартибда кредиторлар реестрига киритилади.

"True Dealers" МЧЖнинг тўловга қобилиятсизлик (банкротлик) иши бўйича суд муҳокамаси 2025 йил 10 октябрь куни соат 10.00 да Тошент туманлараро иқтисодий суди биносида бўлади.

Қўрғонтепа туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 29 августдаги 4-1705-2501/2583-сонли ажрими билан Хонобод шаҳрида жойлашаган "Water life mineral" МЧЖга (СТИР 307303993) нисбатан тўловга қобилиятсизликка оид иш қўзғатилиб, кузатув тартиб-таомили жорий этилган. "Water life mineral" МЧЖ бўйича суд мажлиси 2025 йил 29 сентябрь куни соат 11.00 да Қўрғонтепа туманлараро иқтисодий суди биносида ўтказилиши белгиланган. Корхонага муваққат бошқарувчи этиб Позилов Абдумуталиб Алижонович тайинланган.

Шу муносабат билан корхона кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 3 октябрь куни соат 11.00 да Андижон шаҳар, А.Фитрат кўчаси, 214-а уйда бўлиб ўтади.

Йиғилиш кун тартиби:

1. Муваққат бошқарувчининг ҳисоботи.
2. Қарздор корхона кредиторлари талаблари реестрини тасдиқлаш.
3. Қарздор корхонага нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг кейинги таомилини қўллаш юзасидан иқтисодий судга мурожаат қилиш ва суд бошқарувчиси номзодини кўрсатиш.
4. Муваққат бошқарувчига ойлик иш ҳақи белгилаш.
5. Бошқа масалалар.

Кредиторлар талаблари эълон чиққан кундан бошлаб бир ой давомида қабул қилинади.

Ушбу йиғилишда кредиторлар ўзининг шахсини тасдиқловчи ҳужжат билан, унинг вакили ваколатини белгиловчи ишончнома билан, қарздорликни исботловчи ҳужжатларни тақдим этган ҳолда қатнашишлари мумкин. Мурожаат учун тел: +99894-4558-00-11.

Ромитан туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 15 августдаги 4-2006-2501/4091-сонли ажримига асосан "Азизбек Ашурбек" МЧЖга (СТИР 302303063) нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилиб, кузатув таомили қўлланилган. Муваққат бошқарувчи этиб Бурхонов Мирзожон Ботирович тайинланган.

Шу муносабат билан 2025 йил 3 октябрь куни соат 10.00 да Бухоро вилояти, Бухоро шаҳри, Ислом Каримов кўчаси, 10-уйда жамият кредиторларининг биринчи йиғилиши бўлиб ўтиши режалаштирилган.

Йиғилишда қўйидаги масалалар кўриб чиқилади:

1. Ромитан туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 15 августдаги 4-2006-2501/4091-сонли ажрими билан таништириш.
2. Кредиторлар реестрини тузиш ва тасдиқлаш.
3. Қарздорга нисбатан банкротликнинг навбатдаги таомилини қўллаш.
4. Муваққат бошқарувчининг иш ҳақини белгилаш ва тасдиқлаш.

Кредиторлар йиғилишида кўриб чиқиладиган масалалар билан Бухоро шаҳри, Ислом Каримов кўчаси, 10-уйда танишиб чиқиш мумкин.

Тел: +99897-303-99-66.

Кредиторлар йиғилишига 30 дақиқа қолганда рўйхатга олиш бошланади. Кредиторлар йиғилишида вакиллар ишонч хатлари ва шахсини тасдиқловчи ҳужжатларни тақдим этгандан кейин иштирок этадилар.

Кредиторлар қарздорга бўлган талабларини ёзма шаклда кредиторлик қарзини тасдиқловчи барча ҳужжатларни илова қилган ҳолда эълон чиққан кундан бошлаб бир ой муддат ичида муваққат бошқарувчи М.Б.Бурхоновга тақдим этишлари мумкин.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 25 августдаги 4-1001-2511/94441- сонли ажримига асосан Тошкент шаҳар, Миробод тумани, Ойбек кўчаси, 49-уй, 37-хонада рўйхатдан ўтган "Kaspiy-MV" МЧЖга (СТИР 307179769) нисбатан тўловга қобилиятсизлик иши қўзғатилган ва кузатув таомили жорий этилган. Муваққат бошқарувчи этиб Нуруллаев Бехзодилла Шавкатович тайинланган.

Кредиторларнинг талаблари эълон чиққан кундан бошлаб ўттиз кун давомида Тошкент шаҳар, М.Улуғбек тумани, М.Юсуф кўчаси, 56-уйда (бинонинг иккинчи қаватида) қабул қилинади.

Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 2 октябрь куни соат 15.00 да Тошкент шаҳар, М.Улуғбек тумани, М.Юсуф кўчаси, 56-уйда (бинонинг иккинчи қаватида) бўлиб ўтади.

Кун тартиби:

1. Муваққат бошқарувчи ҳисоботи.
2. "Kaspiy-MV" МЧЖга нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг кейинги таомилини қўллаш.
3. Қўлланилган кейинги таомил учун суд бошқарувчиси номзодини маъқуллаш.
4. "Kaspiy-MV" МЧЖ муваққат бошқарувчисига ойлик иш ҳақини белгилаш.
5. Бошқа масалалар.

Йиғилишда кредитор ўзининг шахсини тасдиқловчи ҳужжат, унинг вакили ваколатини белгиловчи ишончнома билан қатнашиш шарт.

Маълумот олиш учун телефон: +99895-788-43-13.

Зомин туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 1 августдаги 4-1303-2502/5776-сонли ажрими билан Зомин туманидаги "Zangori olov qurilish" МЧЖга (СТИР 303053145) нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилиб, кузатув таомили жорий қилинган. Фориш туман иқтисодий судининг 2025 йил 29 августдаги 4-1303-2502/5776-сонли ажримига асосан муваққат бошқарувчи этиб Б.Холматов тайинланган.

"Zangori olov qurilish" МЧЖ кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 7 октябрь куни соат 11.00 да (индекс:130100) Жиззах шаҳри, Заргарлик маҳалласи, Талабалар кўчаси, "ТРИО" офис биносида бўлиб ўтади.

Йиғилиш кун тартиби:

1. Кредиторлар йиғилиши раисини сайлаш.
2. Муваққат бошқарувчи ҳисоботи.
3. Корхонага нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг кейинги таомилини қўллаш юзасидан Фориш туман иқтисодий судига мурожаат қилиш.
4. Тўловга қобилиятсизликнинг кейинги таомилига суд бошқарувчиси номзодини маъқуллаш.
5. Бошқа масалалар.

Кредиторлар талаблари эълон чиққан кундан бошлаб бир ой муддат ичида Жиззах шаҳри, Заргарлик маҳалласи, Талабалар кўчаси, "ТРИО" офис биносида қабул қилинади.

Мурожаат учун тел: +99899-270-74-71.

Ушбу йиғилишда кредиторлар қарздорликни тасдиқловчи ҳужжатлар, вакиллар шахсини тасдиқловчи ҳужжат ва ишончнома билан қатнашишлари мумкин.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг ажримларига асосан қуйидаги корхона ва ташкилотларга нисбатан банкротлик иши қўзғатилиб, кузатув таомили жорий этилган. Муваққат бошқарувчи этиб 3-тоифали суд тугатиш бошқарувчиси Каримов Файзулла Мирзахматович тайинланган.

Т/р	Хўжалик юритувчи субъект номи	СТИР	ҳал қилув қарори ва ажрими	
			рақами	санаси
1	"Strong beer" MChJ	303466304	4-1001-2502\75612	25.08.2025
2	"Drezden Raff" MChJ	310090106	4-1001-2521\80163	25.08.2025
3	"Shaxlo-Ziyoda inshoat" MChJ	308474188	4-1001-2521\80219	25.08.2025
4	"Grand-sof-group" MChJ	307810807	4-1001-2521\80259	25.08.2025
5	"Dangerous" MChJ	308863265	4-1001-2521\80384	25.08.2025
6	"Expo chamber" UK	302913475	4-1001-2521\80393	25.08.2025
7	"Essens of world" MChJ	302799199	4-1001-2521-\80405	25.08.2025
8	"Doniyor trans" MChJ	207104777	4-1001-2521/80417	25.08.2025

Кредиторлар ўз талабларини 1 ойлик муддат ичида Тошкент шаҳри, Чилонзор даҳаси, 17-мавзе, 39-уй, 18-хонадонга билдиришлари мумкин. Мазкур корхона ва ташкилотларнинг низоми (устави) ва таъсис ҳужжатлари ҳамда муҳри ва штамплари бекор қилинади. Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 6 октябрь куни соат 10.00 да юқорида кўрсатилган манзилда бўлиб ўтади. Маълумот олиш учун тел: +99893-531-01-33.

Зангиота туманлараро иқтисодий судининг 2025йил 29 августдаги 4-1101-2503/13763-сонли ажримига асосан "Fusion group" МЧЖга (СТИР 302695068) ва 4-1101-2503/13765-ажримига асосан "Alur sweets" МЧЖга (СТИР 306408696) нисбатан тўловга қобилиятсизлик иши қўзғатилиб, кузатув жорий этилиб, муваққат бошқарувчи этиб Ташбеков Шухрат Исмаилович тайинланди. Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 10 октябрь куни соат 10.00да Зангиота тумани давлат солиқ инспекциясида Зангиота тумани, Эшонгузар шаҳарчаси, Н.Ходжаев кўчаси, 16-уйда ўтказилади. Кун тартибидаги масалалар: қарздор жамиятга нисбатан банкротликнинг кейинги таомилини қўллаш ва бу таомилга суд бошқарувчиси номзодини тасдиқлаш, кредиторлар реестрини тасдиқлаш, суд бошқарувчилар иш ҳақини белгилаш ва бошқа масалалар. Йиғилишга келганлар шахсларини тасдиқловчи ва қарздорликни асословчи ҳужжат билан қатнашишлари талаб этилади. Кредиторлар ўз талаби билан 1 (бир) ой давомида Тошкент шаҳри, Чилонзор тумани, 135-почта бўлими, а/қ №5757. Тел: +99890-996-21-47 га мурожаат қилиши мумкин.

ЭЪЛОН!

Оҳангарон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 28 августдаги 4-1107-2501/7999 сонли ажрими билан "IDEAL KRISTAL" МЧЖга (СТИР 304657183) нисбатан тўловга қобилиятсизлик (банкротлик) иши қўзғатилиб, кузатув жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи этиб Мамадияров Хасан Жуманазарович тайинланган.

Кузатув таомили жараёнида олиб борилган ишлар бўйича кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 3 октябрь куни соат 15.00 да Тошкент шаҳар, Чилонзор тумани, Хирмонтепа МФЙ, 19-мавзе, 45-уйда бўлиб ўтиши белгиланган.

Кун тартиби:

1. Муваққат бошқарувчининг ҳисоботини тасдиқлаш.
2. Аниқланган кредиторлар талаблари реестрини тасдиқлаш.
3. Ташқи бошқарув, суд санацияси, келишув битими тузиш.
4. Қарздор жамиятни тўловга қобилиятсизликнинг бошқа таомилига ўтказиш.
5. Муваққат бошқарувчига вазифаларини бажарганлиги учун ҳақ тўлаш миқдори ва тартибини белгилаш.

Кредиторлар шахсини тасдиқловчи ҳужжат асл нусхаси ва кредиторлик қарзи бўйича асосли ҳужжатлар асл нусхаси, кредиторлар йиғилишида қатнашиш ва кредитор манфаатларини ҳимоя қилишга ваколат берган ҳужжат асл нусхасини тақдим этишлари шарт.

Эълон чиққан кундан эътиборан (индекс:100182) Тошкент шаҳар, Сергели тумани Қут-барака МФЙ, массив А.Навоий, 100-уйга ёки +99890-987-97-91, +99899-985-19-78 телефон рақамлари ва omad.zari@mail.ru электрон почта орқали мурожат қилиш мумкин.

ЭЪЛОН!

Избоскан туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 12 майдаги 4-1704-2501/464-сонли ҳал қилув қарорига асосан "IZBOSKAN-AGROSERVIS MTP" МЧЖ тўловга қобилиятсиз деб эътироф этилган.

Тугатиш бошқарувчиси этиб 1-тоифали суд бошқарувчиси А.Позилов тайинланган.

Жамият мол-мулкларини баҳолаган баҳоловчи ташкилот ҳисоботларини экспертиза кўригидан ўтказиш бўйича танлов эълон қилинади.

Танловда қатнашиш учун мустақил эксперт ташкилотларидан ўз таклифларини бериш сўралади. Таклифлар эълон чиққан кундан бошлаб 10 (ўн) кун ичида қабул қилинади.

Манзил: Андижон шаҳри, Фитрат кўчаси, 214-А-уй.

+99893-723-40-70 телефон рақами орқали мурожаат қилинса, экспертиза кўригидан ўтказилиши мумкин бўлган баҳолаш ҳисоботлари тақдим этилади.

Боғот туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 22 августдаги 4-2203-2508/8970-сонли иш юзасидан чиқарган ажримига асосан Боғот туманидаги "OAZIZ AGROFIRMA" MChJ ва 2025 йил 22 августдаги 4-2203-2508/8969-сонли иш юзасидан чиқарган ажримига асосан Янгиариқ туманидаги "TAGAN GREENHOUSE" фермер хўжалигига нисбатан "Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида"ги қонунга мувофиқ, кузатув жараёни жорий қилинди. Муваққат бошқарувчи этиб Джуманиёзов Умидбек тайинланди.

Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 2 октябрь куни соат 11.00 да Урганч шаҳар, А.Баходирхон кўчасида жойлашган Асакабанк биносида ўтказилади. Кредиторлар йиғилиши кун тартибидаги масалаларга алоқадор бўлган ҳужжатлар, маълумотлар билан ушбу манзилда 2025 йил 2 октябрь куни соат 10.00 дан бошлаб танишиш мумкин.

Кун тартиби:

1. Муваққат бошқарувчининг жамият молиявий-хўжалик фаолияти юзасидан ўтказган молиявий таҳлили ҳисоботи.
2. Жамиятга нисбатан навбатдаги тўловга қобилиятсизлик таомилини қўллаш тўғрисида иқтисодий судга таклиф киритиш.
3. Суд бошқарувчиси номзодини маъқуллаш ва унга иш ҳақи миқдорини белгилаш.
4. Бошқа масалалар.

Мурожаат учун манзил: Хоразм вилояти,Хонқа тумани, Мадир қишлоғи, Илғор маҳалласи, Ёрқин йўл кўчаси,12-уй, Тел: +99899-500 10 91.

Ҳурматли акциядорлар!

"Ўзбектелеком" АК акциядорларининг умумий йиғилиши 2025 йил 26 сентябрь куни соат 10.00 да масофадан туриб http://evote.uz – электрон овоз бериш платформаси орқали қуйидаги кун тартибида ўтказилади:

1.	"Ўзбектелеком" АК акциядорлари умумий йиғилиши регламентини ва саноқ комиссиясини тасдиқлаш.
2.	"Ўзбектелеком" АК томонидан йирик битим тузилиши.
3.	"Ўзбектелеком" АК томонидан жалб қилинаётган кредит шартларини кўриб чиқиш.

Акциядорларнинг умумий йиғилишини ўтказиш тўғрисида акциядорларга хабар бериш билан боғлиқ бўлган акциядорлар реестри 2025 йил 29 август ҳолатига тузилади.

Акциядорларнинг умумий йиғилишида иштирок этиш ҳуқуқига эга акциядорлар реестри 2025 йил 22 сентябрь ҳолатига тузилади.

Умумий йиғилиш қатнашчиларини рўйхатга олиш 2025 йил 26 сентябрь куни соат 09.00 дан 09.50 гача амалга оширилади.

Акциядорларда умумий йиғилишда қатнашиш учун шахсини тасдиқловчи ҳужжат, уларнинг вакилларида ўрнатилган тартибда расмийлаштирилган ишончнома бўлиши лозим.

Акциядорлар умумий йиғилиши кун тартибидаги масалалар бўйича масофадан туриб овоз бериш электрон рақамли имзо (ЭРИ) ёрдамида www.evote.uz веб-сайти орқали амалга оширилади.

Акциядорларнинг умумий йиғилиши билан боғлиқ ҳужжатлар билан Тошкент шаҳри, Мирзо Улуғбек тумани, Мўминова кўчаси, 4/2-уйда жойлашган "Ўзбектелеком" АК офис биносида шунингдек, компаниянинг www.uztelecom.uz корпоратив веб-сайти, http://evote.uz электрон саҳифаси орқали танишиш мумкин.

Маълумот олиш учун телефонлар: +99871-100-01-14, +99871-100-01-15.

Shahrisabz tumanlararo iqtisodiy sudining 2025-yil 29-avgustdagi 4-1802-2502/5861-sonli ajrimi bilan Kitob tumanida joylashgan "Turon gold business" MChJga (STIR 310882188) nisbatan umumiy belgilangan tartibda to'lovga qobiliyatsizlik ishi qo'zg'atilib, kuzatuv joriy etilgan. Muvaqqat boshqaruvchi etib A.Achilov tayinlangan. Kreditorlarning yig'ilishi Shahrisabz shahri, Ipak yo'li ko'chasi, 108-uyda 2025 yil 28 sentyabr kuni soat 11.00 da bo'lib o'tadi.

Kun tartibidagi masalalar: muvaqqat boshqaruvchisi hisoboti, to'lovga qobiliyatsizlikning keyingi taomili bo'yicha qaror qabul qilish. Barcha talablar e'lon chiqqan kundan e'tiboran 1 (bir) oy muddatda Shahrisabz shahri, Ipak yo'li ko'chasi, 108-uyda qabul qilinadi.

Murojaat uchun telefon: +99888-116-33-23, elektron pochta: abduvali3444@gmail.com

К СВЕДЕНИЮ АКЦИОНЕРОВ АО «KAPITAL SUG'URTA»!

Акционерное общество «KAPITAL SUG'URTA» извещает о созыве внеочередного общего собрания акционеров АО «KAPITAL SUG'URTA» 26 сентября 2025 в 10.00 часов по адресу: г.Ташкент, ул. Махатма Ганди, дом 44, в здании головного офиса АО «KAPITAL SUG'URTA» с использованием информационно-коммуникационные технологии, через платформу «Электронное голосование» – eVOTE» для проведения внеочередного общего собрания акционеров.

ПОВЕСТКА ДНЯ:

1. Об утверждении регламента проведения внеочередного общего собрания акционеров АО «KAPITAL SUG'URTA».
2. О рассмотрении подтверждения финансовой отчетности по итогам 2 квартала 2025 года внешним аудитором ООО «F-PLUS AUDIT».
3. Об утверждении порядка распределения чистой прибыли АО «KAPITAL SUG'URTA» по результатам финансово-хозяйственной деятельности за 2 квартал 2025 года.
4. Об увеличении уставного капитала АО «KAPITAL SUG'URTA».
5. Об утверждении условий и порядка применения преимущественного права дополнительного выпуска акций.
6. О передаче наблюдательному совету АО «KAPITAL SUG'URTA» полномочий по утверждению решения о дополнительном выпуске акций.

Дата закрытия реестра для участия на внеочередном общем собрании акционеров АО «KAPITAL SUG'URTA» - 22 сентября 2025 года.

С материалами, подготовленными к проведению внеочередного общего собрания акционеров АО «KAPITAL SUG'URTA», можно ознакомиться по адресу: г.Ташкент, ул.Махатма Ганди, дом-44, здание головного офиса АО «KAPITAL SUG'URTA».

Регистрация акционеров или их уполномоченных представителей для участия во внеочередном общем собрании акционеров АО «KAPITAL SUG'URTA» будет проводиться путём электронной регистрации и голосованием через платформу «Электронное голосование–eVOTE». 26 сентября2025 года.

Электронное регистрация с 9.30 до 10.00 ч.

Электронное голосование с 10.00 до 10.30 ч.

Телефоны для справок: +99871 200 11 10 (вн.104).

ЭЪЛОН!

Термиз туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 2 мартдаги 4-1901-2504/7385-сонли ажримига асосан "Zuxriddin-Ziyo-Med" МЧЖга (СТИР 306892184) нисбатан тўловга қобилиятсизлик таомили сифатида кузатув жорий этилган. Муваққат бошқарувчи этиб 2-тоифали суд бошқарувчиси Ҳамзаев Беҳзод Марданкулович тайинланган.

Шу муносабат билан мазкур жамият кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 6 октябрь куни соат 11.00 да Термиз шаҳар, М.Қошқарий кўчаси, 36 а-уйда бўлиб ўтади.

Йиғилишда қуйидаги масалалар кўриб чиқилади:

1. Суд бошқарувчисининг тўловга қобилиятсизликнинг кузатув таомилида қилинган ишлар юзасидан берган ҳисоботи.
2. Қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизлик таомилини қўллаш юзасидан иқтисодий судга мурожаат этиш тўғрисидаги овоз бериш бюллетени.
3. Суд бошқарувчисига хизмат вазифасини бажарганлик учун иш ҳақи миқдори ва тартибини белгилаш.
4. Тўловга қобилиятсизликнинг кейинги таомилига суд бошқарувчиси номзодини белгилаш.
5. Кредитор ва муассис талабига кўра, бошқа ҳар хил масалалар.

Ушбу жамият кредиторларининг талаблари эълон чиққан кундан бошлаб бир ой давомида қабул қилинади. Мурожаат учун тел: +99893-767-02-22.

ОТДЕЛ РЕКЛАМЫ /
REKLAMA VA E'LONLAR BO'LIMI

+998 (99) 353-55-54

telegram
BIZNES DAILY BIRJA

Ma’lumotlarni boshqarish milliy tizimiga oid qonun loyihasi ishlab chiqildi

Mazkur loyiha davlat organlarida ma’lumotlarni raqamli yig‘ish, shakllantirish, almashish, qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalanishda yagona yondashuvni joriy etish maqsadida Strategik islohotlar agentligi tomonidan tayyorlandi.



Agentlik bergan axborotga ko‘ra, loyihani ishlab chiqishda Adliya vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Bojxona qo‘mitasi, Soliq qo‘mitasining sohaga mas’ul bo‘lgan vakillari va bir qator xorijiy ekspertlar bilan muhokamalar o‘tkazilib, ularning takliflari inobatga olindi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, bugungi kunda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda aniq va dolzarb ma’lumotlarning yetishmasligi kuzatilmoqda. Natijada muayyan sohalarni rivojlantirish hamda ular bo‘yicha o‘rta, uzoq muddatga mo‘ljallangan strategik rejalashtirish hujjatlarini ishlab chiqishda kamchiliklar yuzaga kelmoqda. Misol uchun, yer osti suv zaxiralarini aniq hisoblash bir nechta davlat organlari tomonidan hamkorlik asosida olib boriladi. Biroq, amaliyotda ular o‘rtasida to‘liq ma’lumot almashish mexanizmining yo‘lga qo‘yilmaganligi va har bir davlat organi o‘z vakolati doirasida ma’lumot yig‘ishi natijasida tegishli ma’lumotlar tarqoq holda yig‘ilmoqda. Bu esa, yer osti suv zaxiralarining to‘g‘ri baholanishiga, ulardan samarali foydalanish, iqtisodiy samaradorlikni baholash, rejalashtirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash jarayonlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shuningdek, muvofiqlashtirilmagan holda turli davlat organlari tomonidan ma’lumotlar bo‘yicha so‘rovlar yuborilishi ma’lumotlar sifatining pasayishiga olib kelmoqda. So‘nggi 10 yil ichida jahonda ma’lumotlarni boshqarish siyosati faol rivojlanmoqda. Jahon banki, OECD, ESCAP, YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlar ushbu sohadagi amaliyotni yaxshilash bo‘yicha mamlakatlar uchun tavsiya va ko‘rsatmalar e’lon qilib kelmoqda.

Masalan, Jahon banki O‘zbekistonga ma’lumotlar manbaini (ma’muriy va geofazoviy ma’lumotlar) kengaytirish zarurligini ta’kidlaydi. Shuningdek, ma’lumotlarni boshqarish bo‘yicha yetakchi mamlakatlar Buyuk Britaniya, Germaniya, Yangi Zelandiya, Kanada, AQSH, Janubiy Koreya va Birlashgan Arab Amirliklari hisoblanib, ularda ma’lumotlarning samarali boshqaruvi yo‘lga qo‘yilgan. Misol uchun, Buyuk Britaniyada 2021-yilda ma’muriy ma’lumotlarni boshqarish bo‘yicha qonun qabul qilinganidan so‘ng, yillik 1,5 mlrd dollarga teng bo‘lgan ma’muriy xarajatlarni tejash imkoni paydo bo‘lgan. Birlashgan Arab Amirligida barcha sohadagi ma’lumotlar ushbu mamlakat rahbariyati tomonidan onlayn kuzatish maqsadida “Dashbord” ma’lumotlar portali joriy qilingan. Janubiy Koreyada ma’lumotlar boshqaruvi bo‘yicha alohida qonun qabul qilingan bo‘lib, ma’lumotlarni tartibga solish va raqamli xizmatlarga bo‘lgan ishonch tufayli, 2011-yildan 2020-yilgacha axborot texnologiyalari xizmatlari eksporti 10 mlrd dollardan 17 mlrd dollargacha (70 foizga) oshgan.

Shular kabi ilg‘or xorijiy tajriba va amaliyotdagi muammolardan chiqarilgan xulosalardan qonun loyihasini ishlab chiqish chog‘ida foydalanilgan. Shunga asosan loyihada ma’lumotlarni boshqarish milliy tizimining 6 ta asosiy prinsipi, ya’ni xalqaro sifat standartlariga muvofiqligi, ma’lumotlarning o‘zaro muvofiqligi va ma’lumotlarga nisbatan umumdavlat yondashuvi tamoyillari aks ettirilmoqda.

Ma’lumotlarni boshqarish milliy tizimi sohasidagi davlat siyosatining 8 ta asosiy yo‘nalishlari hamda bu borada Vazirlar Mahkamasi, Strategik islohotlar agentligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Milliy statistika qo‘mitasining vakolatlari aniq belgilanmoqda. Tizimni shakllantiruvchi ma’lumotlar katalogini shakllantirish tartibi, ishonchli ma’lumotlar manbai hamda ma’lumotlarni xalqaro sifat standartlariga muvofiqlashtirish borasida davlat organlarining majburiyati nazarda tutilmoqda. Ma’lumotlar monetizatsiyasi, ma’lumotlarni boshqarish milliy tizimi doirasida strategik rejalashtirish, davlat moliyasi va dasturiy budjetlashtirish masalalariga oid talablar kiritilmoqda. Davlat siyosati va davlat dasturlari ijrosini monitoring qilish va baholash uchun ma’lumotlardan foydalanish, davlat boshqaruvida so‘rov va hisobot berish jarayonini maqbullashtirishga oid talablar o‘z ifodasini topmoqda. Ma’lumotlardan jamoat manfaatlari sifatida foydalanish bo‘yicha qoidalar kiritilmoqda. Ma’lumotlarni boshqarishning milliy tizimi sohasida amalga oshirish vositalari va mexanizmlari, markazlashtirilgan ma’lumotlar ombori, ma’lumotlar sifatini nazorat qilishga oid talablar o‘rnatilmoqda.

Qonun loyihasi Jahon banki, Germaniyaning Xalqaro hamkorlik jamiyati, BMTning Aholishunoslik tashkiloti va Bolalar fondi ekspertlarining fikr-mulohazalari inobatga olingan. Qonun loyihasini muhokama qilish maqsadida vazirlik va idoralar vakillari ishtirokida davra suhbatlari o‘tkazilgan.

Tashabbuskorlarning urg‘ulashicha, ishlab chiqilgan qonun loyihasi qabul qilinganidan so‘ng bir qator natijalar kutilmoqda. Birinchidan, davlat organlarida ma’lumotlarni raqamli yig‘ish, shakllantirish, almashish, qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalanishda yagona yondashuv joriy etiladi, bu esa davlat tashkilotlarida hisobdorlik uchun sarflanayotgan vaqtni kamida 50 foizga qisqartiradi. Ikkinchidan, davlat organlari faoliyati, davlat dasturlari va siyosatini amalga oshirish samaradorligini xolisona monitoring qilish va baholash imkoniyati yaratiladi. Uchinchidan, natijalarga asoslangan budjetlashtirish va davlat investitsiyalarini samarali boshqarish uchun ishonchli ma’lumotlar shakllantiriladi, bu esa davlat budjeti va xalqaro moliyaviy institutlar mablag‘larining to‘g‘ri va aniq taqsimlanishiga olib keladi. To‘rtinchidan, xususiy sektor tomonidan davlat idoralarining ma’lumotlaridan qayta foydalanish biznesni kengaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishga imkoniyat yaratadi.

Tovar-xom ashyo birjasining afzalliklari tushuntirildi

O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi tomonidan Buxoroda media-trening o‘tkazildi.




Tadbir tovar bozorlarida bozor tamoyillarini joriy qilish va shaffoflikni ta’minlashda tovar-xom ashyo birjasining tutgan o‘rni masalasiga bag‘ishlandi. Ko‘zlangan maqsad kelib chiqib birjaning Buxoro filiali faoliyati misolida mamlakatimiz tovar bozorlarida birja mexanizmlarining roli hamda sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati tushuntirildi. Ta’kidlanganidek, O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasida barcha savdolar shaffoflik, teng sharoitlarni ta’minlash va bozor tamoyillari asosida o‘tkaziladi, tuzilgan bitimlarning bajarilishi esa kafolatlanadi. Bu, o‘z navbatida, tovar bozorlarida narxlarning talab va taklif asosida shakllanishi hamda sof raqobat muhitining rivojlanishiga xizmat qiladi. Birja savdolari platformasi va elektron tijorat savdo tizimlarida o‘tkaziladigan savdolar va o‘zaro hisob-kitoblar jarayonlarining shaffofligi ommaviy axborot vositalari, birjaning rasmiy vebsayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari, zamonaviy axborot texnologiyalari va boshqa resurslar orqali ta’minlanadi. Xususan, mamlakatimiz aholisi va tadbirkorlar birja savdolariga qo‘yilayotgan mahsulotlarning hajmi, birja kotirovkalari, davlat xaridlari bo‘yicha e’lonlar, o‘tkazilgan savdo natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlardan erkin foydalanishlari hamda auksionlarni onlayn tarzda kuzatishlari mumkin. Birjada muloqot aloqalari va jamoatchilik nazoratining samarali tizimi ham yaratilgan. Uning Call-markaziga har kuni birja faoliyati masalalari bo‘yicha 500 dan ortiq qo‘ng‘iroq va 150 ga yaqin onlayn murojaat kelib tushadi. Elektron savdolarda ishtirok etishda muammolarga duch kelgan fuqarolar va tadbirkorlar @uzexfeyedbackbot, korrupsiya holatlari bo‘yicha esa @uzexanticorruptionbot telegram-botlari orqali murojaat qilishlari mumkin. Birja mexanizmlarning afzalliklari tufayli ushbu savdo maydonchalari orqali sotiladigan mahsulotlar ro‘yxati muntazam ravishda kengayib bormoqda.


Bevosita raqamlarga to‘xtalib qayd etilganidek, birjaning Buxoro filialida markaziy savdo zalidan tashqari jami 29 ta savdo maydonchasi, 132 ta brokerlik idorasi, qariyb 292 treyder faoliyat yuritadi. Joriy yil boshidan buyon filialda o‘tkazilgan elektron savdolar natijasida qariyb 14 trln so‘mlik bitimlar tuzilgan bo‘lib, ularning 95 foizi birja savdolariga, qolgan qismi esa elektron tijorat savdo tizimlariga to‘g‘ri kelgan.

Tadbir davomida ommaviy axborot vositalari va tadbirkorlar uchun taqdimotlar ham o‘tkazildi. O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi faoliyatiga doir qabul qilingan yangi qarorlarning mazmun-mohiyati, birjada joriy etilayotgan yangiliklar batafsil tushuntirildi. Chunonchi, savdo ishtirokchilari uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish maqsadida ikki tomonlama qarama-qarshi auksion ishga tushirildi. Ushbu yangi rejim birja savdolari samaradorligini oshirish va tovar bozorlarida raqobat muhitini rivojlantirishga xizmat qiladi. “UZEX Agro” yangi elektron savdo platformasi esa aholi tomorqalarida, fermer va dehqon xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini erkin bozor narxida sotishga mo‘ljallangan. Biznes jarayonlarini optimallashtirish maqsadida tovar-xom ashyo birjasi sun’iy intellekt xizmatlarini joriy qila boshladi. Xususan, birjaning elektron davlat xaridlari tizimida mijozlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida AI Chat-bot xizmati yo‘lga qo‘yildi. Endilikda xarid.uzex.uz platformasida avtorizatsiyadan o‘tgan foydalanuvchilar real vaqt rejimida, birjaning Call-markaziga murojaat qilmasdan, o‘zlarining so‘rovlariga tezkor javoblar va texnik ko‘mak olishlari mumkin. Kelgusida AI Chat-bot funksiyalarini kengaytirish, sun’iy intellektning yangi xizmatlaridan foydalanish, ularni birjaning boshqa elektron savdo platformalariga integratsiya qilish ishlari rejalashtirilgan.



Президент Узбекистана провел переговоры с председателями крупнейших китайских компаний





В Пекине состоялись переговоры Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева с председателем China National Nuclear Corporation (CNNC) Шэнем Яньфенем.

Китайская национальная ядерная корпорация – крупнейшее государственное предприятие в сфере гражданских ядерных программ. Компания осуществляет полный цикл проектов от разведки и обогащения урана до строительства АЭС в Китае и за рубежом.

В начале встречи глава нашего государства поздравил председателя и всю команду CNNC с 70-летием атомной промышленности Китая.

Были обсуждены вопросы реализации в Узбекистане перспективных проектов. Особое внимание уделено вопросам участия китайской компании в трансфере современных технологий и освоении урановых месторождений, проведении геологоразведочных работ на перспективных участках, а также расширении кооперации в области мирного атома.

Кроме этого, в ходе деловой программы официального визита в КНР Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев провел встречу с генеральным директором компании Henan Investment Group Чжу Хунбином.

Являясь одной из ведущих китайских компаний в сфере энергетики и инфраструктурного развития, Henan Investment осуществляет проекты в сферах строительства, промышленности, энергетики, экологии и здравоохранения. Активы компании превышают 50 миллиардов долларов.

Были обсуждены практические аспекты реализации в Узбекистане проектов кооперации, связанных с внедрением передовых технологических решений в освоение угольных месторождений, проектированием и строительством современных электростанций, систем накопления энергии, производством биопродуктов, переработкой отходов с производством чистой энергии.

Глава нашего государства поручил принять отдельную «дорожную карту» для обеспечения своевременной реализации проектов с участием китайской компании.

Потенциал туристической отрасли Узбекистана представлен в рамках туристической конференции в России







Как сообщает ИА «Дунё», дипломаты генерального консульства Узбекистана совместно с Национальным PR центром приняли участие в работе 5-й туристической конференции «ТрЭволюция 2025».

В мероприятии, являющемся одним из самых масштабных образовательных проектов в сфере туризма на территории России, приняли участие туристические операторы со всех российских регионов, а также представители СМИ. В ходе B2B переговоров после официальной части именно стол Узбекистана привлек пристальное внимание участников мероприятия. Было отмечено, что Россия является стратегическим партнёром Узбекистана в туризме – турпоток российских туристов в республику традиционно в 1,5–2 раза превышает число гостей из стран дальнего зарубежья.

Ведущие российские туроператоры отметили высокий спрос на такие туристические направления в Узбекистане, как экологический, этно-, пустынный, гастрономический и мототуризм.

В свою очередь, узбекские туроператоры рассказали не только об огромных возможностях туристической отрасли Узбекистана, но и представили новые маршруты, предлагаемые российским туристам.

Сотрудничестве в сфере противодействия легализации преступных доходов

Дополнительное заседание экспертной группы по согласованию проекта Заявления глав государств – участников Содружества Независимых Государств о сотрудничестве в сфере противодействия легализации (отмыванию) доходов, полученных преступным путем, финансированию терроризма и финансированию распространения оружия массового уничтожения состоялось 2 сентября в онлайн-режиме.

В заседании участвовали представители Армении, Беларуси, Казахстана, Кыргызстана, России, Таджикистана, Узбекистана и Исполнительного комитета Содружества.

Рассмотрев поступившие от государств поправки к документу, эксперты согласовали проект Заявления. Было решено внести его в установленном порядке на рассмотрение очередного заседания Совета глав государств СНГ. Отметим, что проект Заявления разработан российской стороной. В нем говорится о приоритетности задачи снижения общих рисков финансовой безопасности на территории Содружества, в том числе для более полной реализации экономического потенциала государств.

В документе подчеркивается первостепенный характер международного сотрудничества в сфере противодействия



легализации преступных доходов. Это особенно актуально на фоне роста угроз международного терроризма, транснациональной преступности, включая незаконный оборот наркотиков, преступлений, совершаемых с использованием информационно-коммуникационных технологий, а также рисков обхода мер, направленных на противодействие финансированию распространения оружия массового уничтожения.

Также в Заявлении будет подтверждена приверженность международно-правовым обязательствам, вытекающим в том числе из Международной конвенции о борьбе с финансированием терроризма 1999 года, а также Единой конвенции о наркотических средствах 1961 года, Конвенции о психотропных веществах 1971 года, Конвенции ООН о борьбе против незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ 1988 года, Конвенции ООН против транснациональной организованной преступности 2000 года, Конвенции ООН против коррупции 2003 года.

Davlat Soliq Qo'mitasi

2025-yil iyun oyida qaysi hududlarda iste'molchilar ko'proq keshbekka ega bo'ldi?

Iyunda (28-iyul holatiga) iste'molchilarga 124,3 mln chek uchun 116,2 mlrd so'mdan ortiq kesh-bek to'langan.

To'langan keshbeklarning eng katta qismi quyidagi hududlarga to'g'ri kelmoqda:


- Toshkent sh. - 46,6 mlrd so'm;
- Toshkent viloyati - 12 mlrd so'm;
- Samarqand viloyati - 8,2 mlrd so'm;
- Farg'ona viloyati - 7,9 mlrd so'm;
- Andijon viloyati - 6,2 mlrd so'm.

Keshbek olish uchun FACE IDdan o'tish lozim.

2025-yil yanvar-iyun oylarida xarid cheklari bo'yicha to'langan keshbek summasi

28.07.2025-yil holatiga

6 oylik / iyun	Foydalanuvchilar soni (ming nafar)	Cheklar soni (mln ta)	Keshbek summasi (mln so'mda)
	5 857 / 3 380	723,3 / 124,3	664 610 / 116 248



Таъсисчи

Давлат активларини бошқариш агентлиги

"Бизнес-Daily Медиа" ноширлик уйи МЧЖ

Бош директор в.в.б. Бош муҳаррир

У. ПУЛАТОВ

Мурожаат учун

Тел.: +998 (99) 353-55-54

E-mail: biznesdm 2020@gmail.com

Манзил: 100000, Тошкент шаҳри, Амир Темур кўчаси, 6-уй.

Газета 1994 йил 31 августдан чиқа бошлаган.

2013 йил 12 апрелда Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигида 0064-сон билан қайта рўйхатдан ўтган.

2025 йилдан бошлаб газета PDF электрон шаклда чиқади. Нашр даврийлиги: ҳафтада икки марта – ҳар сешанба ва пайшанба кунлари. Формат А3 (816x406)

© Biznes Daily "Биржа"дан кўчириб босиш фақат "Бизнес-Daily Медиа" НУ МЧЖ рухсати билан амалга оширилади.

Газета жамият матбаа бўлимида терилди ва саҳифаланди.

© Biznes Daily "Биржа" оригинал макети.

Газета текин тарқатилади

telegram BIZNES DAILY BIRJA